

## **IJTIMOIIY-SIYOSIIY TERMINLARNI MAZMUNIIY MAYDON ASOSIDA O‘RGANISH**

**To‘raxojaeva Adibaxon**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

**Jalilova Sevinchbonu**

Qo‘qon davlat pedagogika institute talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy-siyosiy leksikaning sistemaviy tabiati va bunda milliy mentallikning ekstralingvistik omil sifatida lug‘aviy sistemaga ta’siri kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy-siyosiy leksika, OLM, lingvistik maydon makrosistema, mikrosistema.

XX asr boshlarida barcha fanlarda sistemaviy tadqiqotlarning kuchayuvi, tilning ham sistemaviy tabiatga ega ekanligining e’tirof etilishi, sistemaning ikki va undan ortiq elementlarning o‘zaro munosabatlaridan tashkil topgan butunlik sifatida tan olinishi [1:4; 2:34; 3:128] o‘rganilayotgan ob’ektning moddiy tomoniga emas, balki ular o‘rtasidagi va bir ob’ektning ichki uzvlari o‘rtasidagi munosabatlarga tadqiqotchi diqqatining ko‘proq jalb qilinishiga olib keldi.

Leksik sathda leksik birliklar o‘rtasidagi munosabat ikki yo‘nalishda o‘rganila boshlandi. Birinchi yo‘nalishda leksemalarning o‘zaro sinonimik, antonimik, omonimik, partonimik, graduonimik, giponimik, partonimik singari munosabatlari va bir leksema tarkibidagi semalarning munosabati, ya’ni leksemaning semik tarkibiga e’tibor qaratilsa, ikkinchi yo‘nalishda esa sistemani tashkil qilgan ichki a’zolarining shajaraviy munosabatini ochishga, jins-tur munosabatiga diqqat jalb qilindi.

Leksik birliklarning shajaraviy tabiatini yoritishga e’tiborning qaratilishi esa leksik sistemani makro va mikrosistemalar butunligi, ya’ni sistemalar sistemasi sifatida talqin qilish imkoniyatini tug‘dirdi.

Bizni qurshab turgan ob’ektiv olam o‘zaro shartlangan, bir-birini taqozo etadigan elementlar munosabatidan tashkil topgan yaxlit bir sistema sifatida ichki bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega. Professor Sh.Iskandarova ta’biri bilan aytganda, bu bo‘linish inson ongida umumlashgan tarzda aks etadi va tilda o‘z ifodasini topadi [4:5]. Olamning inson ongida aks etishi kontseptuallashish sanaladi. Ana shundan kelib chiqib, hozirgi kunda falsafada olamning lisoniy manzarasi [OLM], olamning afsonaviy manzarasi [OAM], olamning ilmiy manzarasi [OIM] singari tushunchalar paydo bo‘ldi. Bularning hammasi olamning inson ongidagi in’kosi natijalari bo‘lib, olamning lisoniy manzarasi deganda, olam sistemasining til orqali ifodalanishi tushuniladi.

OLMga ko‘ra bizni qurshab turgan dunyo makro va mikroolamlarning shajaraviy munosabatidan tashkil topgan. Bunday shajaraviy tabiatga ega bo‘lgan

makroolam inson ongida kontseptuallashtirish ekan, bu kontseptlar turli tillarda turli tarzda o'z ifodasini topadi. Natijada olam – odam – nom triadasi maydonga keldi. Bu triada Sepir-Uorfning har bir til o'ziga xos olam manzarasi bilan xarakterlanadi degan gipotezasi isbotiga aylandi [5:19]. Chunki har qanday tilga xos farqlanish milliy mentallik farqlanishi bilan bog'lanadi. Milliy tilga xos ana shu xususiyatni o'zining "Til" risolasida e'tirof etgan professor N.Mahmudov olmon tilshunosi Vil'gelm fon Gumbol'dtning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasidir" [6: 9].

Ijtimoiy-siyosiy leksemalarning istiqloq davri taraqqiyotida ham milliy mentallik milliy davlatchilikni yaratish sotsial omili negizida namoyon bo'ldi. Buni til lug'at tarkibida prezident, parlament, fuqarolar yig'ini raisi, hukumat kabi til birliklari bilan parallel qo'llanilayotgan Yurtboshi, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, oqsoqol kabi rasmiy nomlarning paydo bo'lishida ham, vazir, devon, hokim, madhiya va boshqa eskirgan leksemalarning qayta shakllanishida ham ko'rish mumkin.

OLM tushunchasining paydo bo'lishi tilshunoslikda lingvistik maydon nazariyasining tug'ilishi va rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Chunki olam inson ongida muayyan mikroolamlarga, ya'ni paradigmalar bo'lingan holda aks etadi. Inson ongida aks etgan olamdagi ana shu paradigmalar o'z lisoniy ifodasiga ega bo'lib, leksik paradigmalarni hosil qiladi. Har qanday tilning leksik sistemasi ma'lum ma'no umumiyliги asosida birlashgan bir qancha paradigmalarning o'zaro munosabatidan tashkil topadi. Ana shunday ma'no umumiyliги asosida xotiramizda birlashgan lisoniy birliklar paradigmasi lingvistik maydon hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ma'lum ma'no umumiyliги asosida birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari yig'indisi lingvistik maydon sifatida belgilanadi [7:380].

Agar OLM tushunchasi lingvistik maydon nazariyasining paydo bo'lishiga turtki bergan bo'lsa, XX asr so'ngida yuz bergan globalashuv va integratsiyalashuv jarayonlari bu nazariyaning yanada aktuallashtirishiga sababchi bo'ldi. Yo.Hamraeva ta'biri bilan ayganda, "Ilm-fan va texnika taraqqiyoti dunyodagi tillarning lug'at tarkibini keskin o'zgartirib yubordi. Buning pirovard natijasida leksik zahiradagi yoki ijtimoiy hayotning muayyan sohasidagi barcha leksik birliklarni to'plash va ularni o'zi mansub bo'lgan paradigmalar (semantik maydonlar) ichida izohlab berishga e'tibor yanada kuchaydi" [8: 21]. Shuning uchun o'zbek tilining hurmat maydoni, anemonimlari maydoni, shaxs maydoni, qarindosh – urug'chilik maydoni singari qator maydonlar tadqiqiga bag'ishlangan bir qancha asarlar dunyoga keldi. Qolaversa, o'zbek tili leksik sistemasining ob'ektiv olam sistemasiga bo'lgan munosabatini to'la yoritish ham o'zbek tili leksikasining mazmun jihatidan qanday mazmuniy maydonlardan (paradigmalar) tashkil topganligi, bu mazmuniy maydonlar tarkibiga kiruvchi LSG va LSQ larning ichki tuzilishi va tuzilish birliklarining o'zaro munosabati, har qaysi maydonlarning uzviy bog'lanishi kabi masalalarni o'rganish bilan chambarchas bog'liqdir.

OLM bilan leksik-semantik sistema o‘rtasidagi assotsiativ munosabatga ko‘ra leksemalarning pog‘onaviy bo‘linishi OLMning pog‘onaviy bo‘linishiga muvofiq keladi. Shuning uchun borliqning siyosat, axloq, din, huquq kabi ijtimoiy ong shakllari o‘zbek tilining leksik sistemasida ijtimoiy-siyosiy leksika, ijtimoiy-axloqiy leksika, ijtimoiy-diniy leksika, ijtimoiy-huquqiy leksika va hokazo kabi lug‘aviy-ma’naviy guruhlarni yuzaga keltiradi va “ijtimoiylik” mikrosistemasiga birlashadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.-B. 4.
2. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yonalishlari. – Toshkent: Talim, 2009. –B. 34.
3. Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. -128b.
4. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 5
5. Апресян В.Ю. Опыт кластерного анализа: русские и английские эмоциональные концепты // Вопросы языкознания. – Москва, 2011. – №1. – С.18-24.
6. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B. 9.
7. Лингвистический энциклопедический словарь. – М, 1990. – С.380.;
8. Hamraeva Yo. O‘zbek tili ideografik lug‘atini tuzish tamoyillari: Filol.fanlari nomzodi .... diss. avtoref. – Toshkent, 2009.– B. 21.